



## AXBOROT XATI

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti hamda O'zbekiston fizik-talabalari va yosh olimlar assotsiatsiyasi hamkorligida 2025-yilning 3-4-aprel kunlari **Yosh olimlar va fizik talabalarning V Respublika ilmiy anjumani (YOOFTRIA-V)** o'tkazilishi rejalashtirilgan.

**Anjumanning maqsadi:** O'zbekiston Respublikasi yosh fizik-olimlari tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar darajasi va sifatini oshirish, mamlakatimizdagi ilmiy-tadqiqot institutlari va OTM lardagi yosh olimlar o'rtasida ilmiy aloqalar o'rnatish, hamkorlikda tadqiqotlar o'tkazish va ularning natijalarini nashr etish hamda ishlab chiqarishga joriy etishga ko'maklashish.

### **Konferensiya quyidagi yo'nalishlar bo'yicha o'tkaziladi:**

1. Yarimo'tkazgichlar fizikasi va yarimo'tkazgichlar materialshunosligi muammolari.
2. Mikroelektronika va elektrotexnika muammolari.
3. Fotonika muammolari.
4. Muqobil energiya manbalari.
5. Qattiq jismlarning radiatsion fizikasi.
6. Kondensatsiyalangan muhitlar fizikasi.

### **Ma'ruzalar tezislari rasmilashtirishga qo'yilgan talablar:**

Tezislar MS Word formatda, Times New Roman (12 pt) shriftida, hajmi 3 betgacha: yuqoridan – 2 sm; chapdan – 3,0 sm; quyidan – 2 sm; o'ngdan – 1,5 sm. Tezis sarlavhasi bosh harflar bilan yoziladi. Abzas: 1 sm. Ma'ruza tezis matni 1,15 interval oraliq bilan yoziladi. Asosiy matn sahifa kengligi bo'yicha tekislanadi. Matematik formulalar Equation dan foydalanilgan holda kiritiladi.

Ma'ruza tezislari original natijalarni aks ettirib, avval chop etilmagan bo'lishi kerak.

Ma'ruzalar tezislari **2025-yilning 20-martgacha** bo'lgan muddatda o'zbek, rus yoki ingliz tillarida Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot institutining rasmiy saytiga (<https://journal.ispm.uz/conference/Anketa.html>) elektron ko'rinishda yuborishingizni so'raymiz. Talablarga mos kelmagan, ilmiy yangilik va amaliy ahamiyatga ega bo'lmagan hamda kechiktirib jo'natilgan ma'ruza tezislari qabul qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Eng yaxshi deb topilgan ma'ruza tezislari Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot institutining "Физика полупроводников и микроэлектроника" ilmiy jurnalida uning talablariga moslangan holda nashr etiladi.

Ma'ruza tezislari berilgan ma'lumotlar uchun mualliflarning o'zlari javobgardirlar. Anjuman ishida faol qatnashgan mualliflarga Sertifikat beriladi. Anjuman materiallari to'plami 2025-yil 4-may kuni Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot institutining ([www.ispm.uz](http://www.ispm.uz)) rasmiy saytiga joylashtiriladi.

Mazkur anjumanda 40 yoshgacha bo'lgan kamida bitta muallif ishtirok etishi mumkin.

Anjumanda ishtirok etish bepul!

Konferensiya **2024 yilning 3 aprel kuni soat 10:00** dan boshlab Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot institutining anjumanlar zalida o'tkaziladi. Konferensiya «Zoom» havolasi ishtirokchilarning ro'yxatdan o'tish paytida ko'rsatgan elektron pochtaga yuboriladi.

**Qo'shimcha ma'lumotlar uchun ma'sullar:** Fayzullayev Qahramon (+998) 97 255 08 05,  
Raxmanov Dilmurod (+998) 97 465 14 16.